



INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING HOZIRGI XITOY TILIGA MOSLASHISHI

Sadoqat Toshpulatova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

E-mail: sadoqat0899@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xasanova Feruza Mirzabekovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoyshunoslik oliy

maktabi boshlig‘i PhD, dotsent

Bugungi kunda ingliz tili xalqaro kommunikatsiya, fan, texnologiya va ta’lim sohalarida asosiy o‘rin egallagan. Globalizatsiya jarayonida ingliz tili dunyodagi eng nufuzli aloqa va fan tili sifatida boshqa tillarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun inglizcha so‘zlarning boshqa tillarga kirib borishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Xitoy tili ham bu jarayondan chetda qolmagan. XIX asr oxirlaridan boshlab ingliz tili orqali kirib kelgan so‘zlar hozirgi xitoy tilining ajralmas qismiga aylangan. So‘nggi o‘n yilliklarda inglizcha o‘zlashmalar zamonaviy xitoy tilining leksik qatlamida muhim o‘rin egalladi. Ularning kirib kelish sabablari texnologik rivojlanish, xalqaro aloqalarning kengayishi, internet va ommaviy madaniyat bilan bog‘liq. Mazkur tezisda inglizcha o‘zlashmalarning xitoy tiliga kirib kelish bosqichlari, shakllanishi, ularning fonetik-grafik va semantik moslashuvi tahlil qilinadi.

Inglizcha o‘zlashmalarning xitoy tiliga kirib kelish jarayoniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Xitoy tiliga inglizcha so‘zlarning kirib kelish tarixi asosan uch bosqichga bo‘linadi: birinchi bosqich – XIX asrda Gonkong va Makao orqali savdo va mustamlaka aloqalari davrida boshlangan, bu davrda Gonkong, Makao, Shanxay kabi port shaharlari orqali savdo, texnika va madaniyat sohasida ko‘plab yangi so‘zlar xitoy tiliga kirgan; ikkinchi bosqich – XX asrda iqtisodiy islohotlar, ta’lim va fan sohasida, sasabi XX asr o‘rtalarida ingliz tili xalqaro siyosat, ilm-fan va iqtisodiy munosabatlarda ustunlikka ega bo‘lgach, inglizcha atamalar xitoy tilida faol ishlatila boshladi; uchinchi bosqich – XXI asrda internet va global texnologiyalar rivoji bilan bog‘liq. Bu davr mobaynida inglizcha so‘zlar asosan texnologiya, iqtisod, siyosat va madaniyat sohalarida orqali xitoy tiliga kirgan va o‘zlashmalar soni yanada ortmoqda.

Inglizcha o‘zlashmalarning fonetik va grafik moslashuvi jarayoniga to‘xtalsak, Xitoy tili fonetik tizimi ingliz tilidan tubdan farq qilgani sababli o‘zlashmalar transliteratsiya yo‘li bilan moslashtiriladi. Masalan, “coffee” – 咖啡 (kāfēi), “sofa” – 沙发 (shāfā), “chocolate” – 巧克力 (qiǎokèlì) kabi shakllarda yoziladi. Bu so‘zlar talaffuz jihatidan inglizcha so‘zga yaqin, so‘zning talaffuzi imkon qadar saqlanadi, lekin yozuv tizimi iyeroglif yozuv tizimi orqali xitoy tiliga moslashtirilgan. Ba’zan o‘zlashmalar qisqartma yoki kombinatsiya shaklida ham qo‘llanadi, masalan, IT (信息





技术 xīnxī jìshù) yoki VIP (贵宾 guībīn). Ba'zi so'zlar esa to'liq moslashib, xitoy tilining umumiy leksik tizimiga singib ketgan.

Inglizcha o'zlashmalarning leksik va semantik xususiyatlari ham e'tiborga molik. O'zlashmalar xitoy tiliga kirgach, ko'pincha semantik o'zgarishga uchraydi. Ba'zi so'zlar asl ma'nosini to'liq saqlasa, boshqalari ma'no torayishi yoki kengayishiga uchraydi. Misol uchun, “派对” (pàiduì) so'zi inglizcha “party”dan olingan bo'lib, faqat ijtimoiy yig'in ma'nosida ishlatiladi, siyosiy partiya ma'nosida esa “党” (dǎng) so'zi qo'llanadi. Bundan tashqari, inglizcha o'zlashmalar asosida yangi so'z yasash jarayoni ham faol kechmoqda. Texnologiya, moda, biznes va internet sohalarida bu hodisa ayniqsa keng tarqalgan, natijada ko'plab yangi birliklar vujudga kelgan.

Inglizcha o'zlashmalarning xitoy tiliga ta'siri va til siyosati bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sababi Xitoy tilidagi inglizcha o'zlashmalar tilning boyishiga xizmat qilsa-da, ayrim hollarda milliy o'ziga xoslikni yo'qotish xavfini ham tug'diradi. Xitoy hukumati til siyosatida milliylikni saqlashga intilsa-da, inglizcha o'zlashmalarni to'liq cheklash amaliy jihatdan murakkabdir. Shu bois Xitoy hukumati til siyosati doirasida purizmga e'tibor qaratmoqda. Puristik qarashlar inglizcha so'zlar o'rniga mahalliy muqobillarni yaratishni rag'batlantiradi. Misol uchun, ommaviy axborot vositalarida ba'zi inglizcha atamalar o'rniga milliy muqobillarni qo'llash tavsiya etiladi. Biroq ilmiy-texnikaviy sohalarda inglizcha atamalardan foydalanish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, inglizcha o'zlashmalar xitoy tilining xalqaro moslashuvchanligini kuchaytirib, global muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun ham global aloqalar kuchayib borayotgan sharoitda o'zlashmalarning butunlay cheklanishi amaliy jihatdan mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, inglizcha o'zlashmalar xitoy tilining zamonaviy rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda, ya'ni inglizcha o'zlashmalar xitoy tilining leksik tizimida faol o'rin egallab, tilni zamonaviy texnologik va madaniy talablarga moslashtirmoqda, yangi tushunchalar va texnologiyalarni ifodalashda tilni boyitmoqda. Kelgusida bu jarayon yanada kuchayib, xitoy tilining xalqaro miqyosda moslashuvchanligini oshiradi. Shungdek, bu jarayon xitoy tilining global muloqotdagi mavqeini mustahkamlash bilan birga, tilshunoslik uchun yangi tadqiqot yo'nalishlarini ham ochib bermoqda. Kelgusida muhim vazifa – milliy til me'yorlarini saqlagan holda, global o'zgarishlarga moslashish jarayonini muvozanatli olib borishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chen, Ping. (2012). Modern Chinese: History and Sociolinguistics. Cambridge University Press.
2. Norman, Jerry. (1988). Chinese. Cambridge University Press.





3. Zhang, Wei. (2020). English Loanwords in Modern Chinese: Adaptation and Integration. Journal of Asian Linguistics, Vol. 15.
4. Crystal, David. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
5. Liu, Mei. (2018). The Influence of English on Modern Chinese Vocabulary. Beijing University Press.
6. Xitoy Xalq Respublikasi Ta'lim vazirligi. (2019). Putongxua va xorijiy so'zlardan foydalanish bo'yicha qo'llanma.